



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 326 sahifa,
6-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Fizika ta'limida integratsiyalashgan yondashuv: mazmuni va ahamiyati.....	10
Doniyorova Iroda Baxtiyor qizi	
Zamonaviy boshlang'ich ta'lim: milliy dastur, kompetensiya va xorijiy tajriba integratsiyasi.....	14
Omonova Nilufar Parda qizi	
The Role of Environmental Project-Based Learning in Developing EFL Learners' Productive Skills.....	19
Xujanova Shaxina Abdullayevna	
Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limning pedagogik aspektlari	24
Eshpo'latova Elnora Yo'ldoshovna	
Talabalarda stressga barqarorlikning nazariy va amaliy tahlili.....	29
Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Maxmudova Shahzoda Maksudovna	
Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda didaktik ta'minotning ahamiyati.....	32
Ramazonova Bahroy Sadriddinovna	
Oliy ta'limda raqamli pedagogikaning institutsionlashuvi: boshqaruv, siyosat va raqamli transformatsiya strategiyalari.....	36
Nuraliyeva Dilshoda Yo'ichiboy qizi	
Aholini jismoniy sog'lomlashtirishda sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	41
V. Sh. Raximov	
O'spirinlik davrida motiv va motivatsion sohalarning kasb tanlashdagi o'rni	46
Rayimqulova S., Pulatova R., Do'smatova S., Matyakubova Shohista Odamboy qizi	
Tarbiyachi shaxsining shakllanishida psixologik determinantlarning roli	51
Vasila Yusupova	
Kasbiy ta'lim o'quvchilarini ijodiy qobiliyatini oshirishda xorijiy tajribalardan foydalanish	55
B. X. Sharopov	
Raqamli axborot makonida gumanistik g'oyalarni integratsiyalashning nazariy konsepsiyasi	59
Isanov Najotbek Ilmamat o'g'li	
Fanlararo integratsiya asosida o'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish imkoniyatlari.....	63
J. M. Fayzullayev, Ortiqova E'zoza Olimjon qizi	
Millatlarning o'ziga xos dunyoqarashining psixologik xususiyatlari	67
Murxashev Axmadxon Olimjon o'g'li	
Xalqaro ta'lim dasturlari asosida kasbiy ta'lim muassasalarida metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi.....	70
S. A. Qarshiboyev	
Ijtimoiy media kontentlari orqali talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning nazariy asoslari.....	74
Suyunov Rustam Sadriddinovich	
Ko'p tilli muhitda ingliz tilini o'rganishning lingvistik xususiyatlari	78
Teshaboyeva Mohichexra Sohibjon qizi	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida bo'lajak pedagoglarning mediakompetentligini rivojlantirish zarurati.....	81
Umarov Azizbek Vaxobovich	
O'quvchilarda badiiy matn leksikasini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar: muammo va yechim.....	85
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini ma'naviy tarbiyalashda Ahmad al-Farg'oniy asarlarini kompyuter imitatsion modellari asosida o'qitish metodikasi.....	89
S. S. Qulmurodova	
Enhancement of Periodontal Disease Management Strategies in Individuals With Chronic Hepatitis C Following Attainment of a Sustained Virological Response.....	92
Makhmudova Ugiloy Bakhtiyorovna	



Epithelial-Mesenchymal Transition's Possible Role in the Pathogenesis of Periodontitis (Literature Review).....	95
Burkhonova Zараfruz Kobilovna	
Gamifikatsiya asosida bo'lajak oligofrenopedagoglarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari mexanizmini tatbiq etish	102
Bozorboyev Javlon	
Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish omillari.....	106
Jamilova Dilsuza To'lqin qizi	
Elektrir va magnit maydonida yorug'likning ikkilamchi sinishi.....	110
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Alimardonov Husan Yorqin o'g'li, Ismatullayev Sayfiddin Panji o'g'li	
Lazer texnologiyalarining zamonaviy qo'llanilishi	114
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Muminova Sevinch Kamoliddin qizi, Begnayeve Dilbar Bobonazar qizi	
Fotometrik kattaliklar	117
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Mamatqulova Zebo Komiljon qizi, Xolmaxmatova Sevara Sirojiddin qizi	
Qutublangan yorug'lik manbalari	121
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Turdimurodova Kumushbibi, Normuminova Madina	
Tabiatdagi optik hodisalar	125
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Qudratova Sevinch Otabek qizi, Ulasheva Ruxshona Rustam qizi	
Rus tilini o'qitishda kompetensiyaga asoslangan innovatsion yondashuvlardan foydalanish	129
Erkinova Nozima Utkir qizi	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasini tadqiq etishning ilmiy-metodologik tahlili	133
Ikmatullayev G'. Z.	
Raqamli ta'lim platformalarida matematika o'qitishda sun'iy intellekt yordamida baholash tizimini takomillashtirish	136
Mirzayeva Shahlo Abduraxmanovna, Akbarov Ulug'bek, Abdivaliyeva Umida	
Linguistic and Pedagogical Foundations of Teaching English as a Foreign Language in The Uzbek Context.....	140
Shokirova Mushtariy	
Sun'iy intellektning ta'lim jarayonidagi transformatsion roli	144
Uzoqboyev Xojiakbar Qobuljon o'g'li	
Enhancing Collaborative Learning and Peer Feedback in EFL Classrooms Through Padlet: a Digital Approach to Group Work and Assessment.....	148
Veronica Khatamova	
Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning rasmlar asosida aqliy faoliyatini rivojlantirishning vizual-didaktik texnologiyalarini takomillashtirish.....	152
Meliqo'ziyev Abduraxmonjon Qahramonjon o'g'li	
Emotsional intellekt – hr menejerlarning qaror qabul qilish kompetensiyasining determinanti sifatida	157
Abdukarimov Muhammadjon Muratovich	
O'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning tizimli-pedagogik modeli: nazariya, metodologiya va amaliyot	162
Islamova Fotima Shamsiddinovna	
Barkamol yosh avlod fazilatlarini shakllantirishda milliy innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni.....	170
Olimova Dono Shakirovna, Baxtiyorova Shahnoza Mansurbekovna	
Development of Prevention of Professional-Pedagogical Deformation on the Basis of Health-Saving Technologies in Higher Educational Institutions.....	174
Saidova Parvina Mirzo kizi	
O'zbek xalq pedagogikasi mazmuni asosida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ilmiy nazariy asoslari	178
Rahmonqulova Guliza Faxriddin qizi	

Bolalarning maktabgacha yosh davrida emotsional rivojlanishiga oid nazariy qarashlar tavsifi.....	182
<i>Abduraxmonova Gulmira Arapjon qizi, Yuldasheva Umida Maxmudovna</i>	
Alohida ehtiyojli bolalar uy ta'limini tashkil etishning korreksion pedagogik tizimining tarkibiy komponentlari.....	186
<i>Jo'raxo'jayev Muhammadazizxo'ja Xalilxo'ja o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia vositalarining ahamiyati.....	190
<i>Umida Marasulova</i>	
Boshlang'ich funksiya va aniqmas integral.....	193
<i>Mirzayeva Shahlo, Isroilova Zahro, Erkinova Shahrizoda, Javliyeva Dilnura</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar adabiyoti kerakmi?!.....	196
<i>Dilfuza Shadiyeva</i>	
Experimental Study on the Psycho-Pedagogical Effectiveness of Mall-Based Multimodal Learning in Developing Pluricultural Competence	200
<i>Azimova Sevara Muzaffar qizi</i>	
Simulyatsion o'quv muhitida fizika o'qituvchilarining o'z-o'zini boshqarish va refleksiv kompetentligini oshirish	205
<i>Muradov Ilxomjon Abduxamid o'g'li</i>	
Ta'lim menejmentida strategik boshqaruv tushunchasining evolyutsiyasi.....	209
<i>Raximjonov Jamshid Rafiqjon o'g'li</i>	
Raqamli kompetentlik tushunchasining ilmiy-nazariy talqini va xorijiy hamda mahalliy tadqiqotlar tahlili	214
<i>Umirov Boboyor Baxtiyor o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyatlar samaradorligini oshirishda pedagogik multimedia vositalaridan foydalanish usullari.....	218
<i>Abdreimova Maftuna O'ktam qizi</i>	
Boshlang'ich sinf texnologiya darsliklarining tuzilishi hamda o'quvchilar yoshiga muvofiqligi.....	223
<i>Bobolov Nuriddin Tojiyevich</i>	
Oliy ta'limda pedagoglarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalar	228
<i>Isabekov Bahodir Isabek o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tolerantlik madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik masalalari .	233
<i>Boydavletova Sohiba Abduganiyevna</i>	
Aksiologik yondashuv asosida tarbiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	239
<i>G'aybullayev Bobur Nomonjon o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati.....	243
<i>Toshpo'latova Muxlisa G'olib qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv kompetentligini rivojlantirishning mazmuni va ilmiy-nazariy pedagogik asoslari.....	248
<i>Mamatqulova Saboxat Abduraxmonovna</i>	
Maktabgacha ta'limda monitoring va baholash tizimini takomillashtirish.....	253
<i>Amanova Durdona Kaxramonovna</i>	
O'zbekiston yoshlarining ma'naviy va estetik tarbiyasida tasviriy san'at va zamonaviy pedagogik texnologiyalar.....	257
<i>Esanova Hulkar Abdurayim qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida eksperimental-tajriba faoliyatini tashkil etish	261
<i>Gafurova Dilnoza Saloxiddinovna</i>	
Ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi xavfsizlik hissiga ta'sirining nazariy va amaliy tahlili	266
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Qoldiboyeva Xayriniso Eldarovna</i>	
Milliy o'yinlarni o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari.....	269
<i>Ismatov Po'latjon Abdumannobovich</i>	
Ta'lim sifatini boshqarish jarayonida kvalimetrik parametrlarini takomillashtirishda xorijiy tajribalarning ahamiyati	273
<i>Karimova Maxbubaxon Mukimjonovna</i>	



Innovatsion ta'lim sharoitida bolalar adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli.....	278
<i>Mirzayeva Nigora Bozorovna</i>	
Matematika o'qitishda milliy qadriyatlarni aks ettirish	282
<i>Mirzayeva Shahlo, Yuldoshova E'zoza Ravshan qizi, Muxtorova Sevinch Asad qizi, Xolboyeva Mushtariy Zayniddin qizi</i>	
Ingliz tilida fe'l frazeoformalarining morfologik tuzilishiga xos umumiy xususiyatlar.....	285
<i>Jo'rayeva Nargiza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqini o'stirishda interaktiv metodlarning ahamiyati.....	289
<i>Ramazonova Munisa Hoshim qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining lug'at boyligini oshirishda intellektual o'yinlar va interfaol usullardan foydalanish.....	294
<i>Raxmonova Gulrux Ubaydullayevna, Ibragimova Dildora Turabovna</i>	
Maktabgacha ta'limda pedagoglar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda uslubiy xizmat va hamkorlik mexanizmlarining samaradorligi.....	298
<i>S. A. Rahmonberdiyev</i>	
Yoshlarni destruktiv submadaniyatlar ta'siridan himoyalashning innovatsion pedagogik usullari	304
<i>Xasanova Marxabo Turayevna</i>	
Социально-психологические особенности домашнего насилия в условиях трансформации семьи и цифровизации общества	308
<i>Абдукадилова Лаура Юльбарсовна, Абдуллаева Азиза Комилжон кизи</i>	
Педагогические основы развития инновационной компетентности педагогов в системе дошкольного образования.....	315
<i>Гульнара Ахтямовна</i>	
Роль учебного процесса и творческой деятельности в сохранении психологического равновесия.....	320
<i>Коршубаева Рано Хазраткуловна</i>	



INGLIZ TILIDA FE'L FRAZEOFORMALARINING MORFOLOGIK TUZILISHIGA XOS UMUMIY XUSUSIYATLAR

Jo'rayeva Nargiza Shavkatovna
Navoiy davlat universiteti o'qituvchisi

ORCID: 0009-0007-5798-509X

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot ingliz tilidagi fe'l frazeologik birliklarning morfologik tuzilishi va ularning grammatik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Ishda frazeologik birliklarning erkin, qisman va qat'iy o'zgaruvchanlik darajalari aniqlanib, ularning zamon, aspekt va boshqa grammatik kategoriyalar bilan bog'liqligi tahlil qilingan. Shuningdek, idiomatiklik darajasi va morfologik o'zgaruvchanlik o'rtasidagi o'zaro teskari bog'liqlik ilmiy jihatdan yoritilgan. Tadqiqot natijalari frazeologik birliklarning statik emas, balki dinamik lingvistik tizim ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: fe'l frazeologik birliklari, morfologik o'zgaruvchanlik, idiomatiklik, grammatik shakllar, Present Simple, aspekt, zamon kategoriyasi, frazeologiya, lingvistik tahlil.

Abstract: This study is devoted to the analysis of the morphological structure of verbal phraseological units in the English language and their grammatical characteristics. The research identifies free, partially variable, and fixed degrees of variability within phraseological units and examines their relationship with grammatical categories such as tense, aspect, and others. In addition, the inverse relationship between the degree of idiomativeness and morphological variability is scientifically substantiated. The findings demonstrate that phraseological units represent not a static but a dynamic linguistic system.

Key words: verbal phraseological units, morphological variability, idiomativeness, grammatical forms, Present Simple, aspect, tense category, phraseology, linguistic analysis.

Аннотация: Данное исследование посвящено изучению морфологической структуры глагольных фразеологических единиц английского языка и их грамматических характеристик. В работе определяются степени вариативности фразеологических единиц (свободная, частичная и фиксированная) и анализируется их связь с грамматическими категориями, такими как время, аспект и другие. Кроме того, научно обоснована обратная зависимость между степенью идиоматичности и морфологической вариативностью. Результаты исследования показывают, что фразеологические единицы представляют собой не статичную, а динамичную лингвистическую систему.

Ключевые слова: глагольные фразеологические единицы, морфологическая вариативность, идиоматичность, грамматические формы, Present Simple, аспект, категория времени, фразеология, лингвистический анализ.

KIRISH

So'nggi yillarda tilshunoslikda frazeologiya yo'nalishi jadal rivojlanib, frazeologik birliklar til tizimining murakkab va ko'p qatlamli komponenti sifatida keng o'rganilmoqda. Zamonaviy tadqiqotlarda frazeologik birliklar nafaqat leksik birlik sifatida, balki milliy tafakkur, madaniyat va nutq faoliyatini aks ettiruvchi muhim vosita sifatida ham talqin qilinmoqda. Xususan, kognitiv va lingvokulturologik yondashuvlar frazeologik birliklarning inson tafakkuri bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatib bermoqda (Kalybayeva va boshq., 2020; Boborajabov, 2024).

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Frazeologik birliklarning strukturaviy va grammatik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar (Sheraliev & Sultonova, 2024; Iskhakova, 2024) ularning barqarorlik, ko'p komponentlilik va semantik yaxlillik kabi muhim belgilarini aniqlab bergan. Shu bilan birga, ayrim ilmiy ishlarda frazeologik birliklarning grammatik va paradigmatic xususiyatlari hali yetarli darajada tizimli ravishda o'rganilmaganligi ta'kidlanadi (Umarjonova va boshq., 2024).

Ayniqsa, fe'l komponentiga ega frazeologik birliklar (verbal phraseological units) alohida e'tiborni talab qiladi. Chunki bunday birliklarda fe'l grammatik kategoriyalar – zamon, nisbat, aspekt va boshqalar bilan bevosita bog'liq holda turli shakllarda namoyon bo'ladi. Marsheuskaya (2024) o'z tadqiqotida fe'l frazeologik

birliklarning grammatik xususiyatlarini tahlil qilib, ularning semantik va strukturaviy tashkil topishida fe'l komponentining hal qiluvchi rol o'ynashini asoslab beradi.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, fe'l frazeologik birliklarda morfologik o'zgaruvchanlik darajasi bir xil emas: ayrim birliklarda fe'l komponenti erkin tarzda turli grammatik shakllarda qo'llanilsa, boshqalarida esa qat'iy barqaror shaklda saqlanib qoladi. Bu holat frazeologik birliklarning ichki tizimi va ularning nutqdagi funksional xususiyatlarini chuqurroq o'rganishni talab etadi.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotning maqsadi ingliz tilidagi fe'l frazeologik birliklarning morfologik xususiyatlarini aniqlash, ularning grammatik kategoriyalar bilan o'zaro munosabatini hamda o'zgaruvchanlik darajasini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ingliz tilidagi fe'l komponentiga ega frazeologik birliklarning morfologik xususiyatlarini o'rganish maqsadida kompleks yondashuv asosida bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning empirik bazasini ingliz tilidagi zamonaviy frazeologik lug'atlar, badiiy adabiyotlar hamda korpus materiallari tashkil etdi. Tanlab olingan frazeologik birliklar ichidan aynan fe'l komponentiga ega bo'lgan birliklar ajratib olinib, ularning grammatik shakllari tahlil qilindi.

*Birinchi*dan, deskriptiv metod yordamida fe'l frazeologik birliklarning umumiy morfologik xususiyatlari tavsiflandi. Ushbu metod orqali ularning zamon, nisbat va aspekt kategoriyalaridagi ifodalanish holatlari aniqlashtirildi.

*Ikkinchi*dan, komponent tahlil metodi asosida frazeologik birlik tarkibidagi fe'l komponentining alohida morfologik imkoniyatlari o'rganildi. Bu orqali fe'lning mustaqil holatdagi grammatik imkoniyatlari bilan frazeologik birlik tarkibidagi cheklanishlari o'rtasidagi farqlar aniqlab berildi.

*Uchinchi*dan, kontekstual tahlil metodi qo'llanilib, fe'l frazeologik birliklarning real nutq jarayonida qo'llanishi o'rganildi. Ushbu metod orqali ayrim frazeologik birliklarning turli zamon shakllarida ishlatilishi yoki, aksincha, qat'iy shaklda saqlanib qolishi kuzatildi.

*To'rtinchi*dan, qiyosiy-tahliliy metod asosida turli frazeologik birliklarning morfologik o'zgaruvchanlik darajasi o'zaro solishtirildi. Natijada erkin o'zgaruvchi va qat'iy barqaror birliklar o'rtasidagi asosiy farqlar aniqlashtirildi.

Shuningdek, tadqiqot davomida statistik kuzatish elementlari ham qo'llanilib, tanlangan frazeologik birliklarning qanchalik darajada grammatik o'zgarishga uchrashi foiz ko'rinishida umumlashtirildi. Bu esa olingan natijalarning ishonchliligini oshirishga xizmat qildi.

Tadqiqot davomida jami 120 ta fe'l frazeologik birlik tahlil qilinib, ularning morfologik o'zgaruvchanlik darajasi hamda grammatik qo'llanish xususiyatlari o'rganildi. Olingan natijalar frazeologik birliklarning strukturaviy va funksional jihatdan sezilarli farqlanishini ko'rsatdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Birinchi jadval natijalariga ko'ra, eng katta ulushni erkin o'zgaruvchi frazeologik birliklar tashkil etadi (45%). Ushbu guruhga mansub birliklarda fe'l komponenti zamon va aspekt kategoriyalari doirasida erkin o'zgarish xususiyatiga ega. Masalan, show the white feather iborasi turli grammatik shakllarda qo'llanishi mumkin: shows, showed, has shown va hokazo.

Bu holat mazkur birliklarning grammatik moslashuvchanligini hamda nutqiy kontekstga tez moslasha olishini ko'rsatadi. Qisman o'zgaruvchi birliklar 30%ni tashkil etadi. Ushbu guruhda ayrim grammatik o'zgarishlar mumkin bo'lsa-da, ular ma'no yaxlitligini saqlab qolish bilan cheklanadi. Qat'iy (o'zgarmas) frazeologik birliklar esa 25%ni tashkil qilib, grammatik transformatsiyani qabul qilmaydi. Bunday holat ularning yuqori darajadagi idiomatikligi bilan izohlanadi, ya'ni ma'no butunligi shakl o'zgarishiga yo'l qo'ymaydi.

Ikkinchi jadvalda frazeologik birliklarning grammatik shakllarda qo'llanish chastotasi tahlil qilindi. Natijalarga ko'ra, eng keng tarqalgan shakl Present Simple bo'lib, 90% ko'rsatkichga ega. Bu holat frazeologik birliklarning ko'pincha umumiy haqiqat, doimiy holat yoki stereotipik ma'nolarni ifodalashi bilan bog'liq. Past Simple shakli ham yuqori darajada qo'llaniladi (75%), ayniqsa, narrativ matnlarda. Present Continuous (40%) va Perfect shakllari (35%) esa nisbatan kamroq uchraydi. Bu esa frazeologik birliklarning dinamik jarayonlardan ko'ra barqaror ma'no ifodalashga moyilligini ko'rsatadi.

Passive Voice eng kam qo'llaniladigan shakl bo'lib, 25%ni tashkil etadi va faqat ayrim maxsus birliklar doirasida uchraydi (masalan, be thrown on one's beam-end). Uchinchi jadval esa idiomatiklik darajasi bilan morfologik o'zgaruvchanlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ochib berdi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, idiomatiklik darajasi oshgan sari morfologik o'zgaruvchanlik kamayadi. Ya'ni, yuqori darajadagi idiomatik birliklar grammatik jihatdan deyarli o'zgarmas bo'lib qoladi, past darajadagi-



lari esa nisbatan erkin o'zgaradi. Masalan, pull somebody's leg iborasi ma'lum darajada grammatik moslashuvchanlikka ega bo'lsa, charity begins at home kabi iboralar qat'iy shaklda qo'llaniladi. Bu holat frazeologik birliklarning semantik yaxlitligi ularning sintaktik va morfologik erkinligini cheklashini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, olingan natijalar frazeologik birliklar tizimida grammatik moslashuvchanlik va idiomatiklik o'rtasida teskari proporsional bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa ularning lingvistik tabiatini chuqurroq tushinishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

1-jadval: Morfologik o'zgaruvchanlik

Guruh	Frazeologik birlik	Misol
Erkin o'zgaruvchi	show the white feather	showed / shows
Erkin o'zgaruvchi	break the ice	broke / breaking
Qisman o'zgaruvchi	take care of	taking / took care of
Qisman o'zgaruvchi	make a decision	making / made
Qat'iy	charity begins at home	o'zgarmaydi
Qat'iy	spill the beans	o'zgarmaydi

2-jadval: Grammatik shakllar

Shakl	Frazeologik birlik	Misol
Present Simple	break the ice	He breaks the ice
Past Simple	show the white feather	He showed it
Continuous	take care of	She is taking care
Perfect	break the ice	He has broken it
Passive	throw on beam-ends	He was thrown

3-jadval: Idiomatiklik va o'zgarish

Daraja	Misol	O'zgarish
Yuqori	charity begins at home	yo'q
Yuqori	spill the beans	juda kam
O'rta	take care of	qisman
Past	break the ice	erkin

Olingan natijalar ingliz tilidagi fe'l frazeologik birliklarning morfologik tuzilishi qat'iy va bir xil tizim emasligini yaqqol ko'rsatadi. Eng muhim xulosa shuki, frazeologik birliklar grammatik jihatdan "to'liq erkin" ham, "mutlaqo o'zgarmas" ham emas – ular ushbu ikki qutb orasida dinamik tarzda joylashgan oraliq tizimni tashkil etadi. Erkin o'zgaruvchi birliklarning yuqori ulushi (45%) frazeologik tizimning nutq jarayoniga moslashuvchanligini tasdiqlaydi. Bu holat, ayniqsa, zamon va aspekt kategoriyalarining fe'l komponenti bilan faol integratsiyasini ko'rsatadi. Bunday birliklar diskursda faol qo'llanilib, kommunikativ ehtiyojga qarab grammatik shaklni oson o'zgartiradi. Bu esa frazeologik birliklarning leksik darajada "qotib qolgan konstruksiya" emas, balki funksional jihatdan harakatchan birlik ekanligini bildiradi.

Biroq qisman o'zgaruvchi (30%) va qat'iy (25%) birliklarning mavjudligi frazeologik tizimda cheklov mexanizmlarining ham amal qilishini ko'rsatadi. Ayniqsa, qat'iy birliklarda grammatik transformatsiyaning mavjud emasligi ularning semantik yaxlitligi bilan bevosita bog'liq. Ya'ni ma'no darajasi qanchalik idiomatik bo'lsa, shakl darajasidagi o'zgaruvchanlik shunchalik kamayadi. Bu natija frazeologik birliklarda "shakl–ma'no muvozanati" tamoyili mavjudligini tasdiqlaydi. Grammatik shakllar tahlili ham muhim tendensiyani ochib beradi: Present Simple shaklining ustunligi (90%) frazeologik birliklarning ko'pincha umumiy haqiqat, stereotipik fikr va barqaror konseptlarni ifodalashi bilan bog'liq. Past Simple va boshqa narrativ shakllarning nisbatan yuqori, biroq cheklangan qo'llanilishi esa ularning hikoya va kontekstual bayon jarayoniga moslashishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Continuous va Perfect shakllarning past ko'rsatkichlari frazeologik birliklarning dinamik jaryonlardan ko'ra barqaror semantik konstruksiyalarni ifodalashga moyilligini tasdiqlaydi.

Idiomatiklik va morfologik o'zgaruvchanlik o'rtasidagi teskari proporsional bog'liqlik tadqiqotning eng muhim nazariy natijalaridan biridir. Yuqori darajadagi idiomatik birliklar deyarli o'zgarmas bo'lib, ular nutqda tayyor blok sifatida ishlatiladi. Past idiomatiklikka ega birliklar esa grammatik jihatdan ko'proq moslashuvchanlikka ega. Bu holat frazeologik birliklarning semantik integratsiyasi kuchaygan sari ularning sintaktik erkinligi kamayishini ko'rsatadi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari frazeologik birliklarni statik leksik birlik sifatida

emas, balki grammatik, semantik va funksional omillar o'zaro ta'sirida shakllanuvchi murakkab tizim sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi. Bu esa frazeologiya sohasida morfologik va kognitiv yondashuvlarni integratsiyalashgan holda o'rganish muhimligini asoslaydi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari ingliz tilidagi fe'l frazeologik birliklarning morfologik tuzilishi va grammatik qo'llanishi murakkab, ko'p darajali tizim ekanligini ko'rsatdi. 120 ta frazeologik birlik tahlili asosida ularning morfologik o'zgaruvchanligi bir xil emasligi, ya'ni erkin, qisman va qat'iy shakllar o'rtasida aniq farqlanish mavjudligi aniqlandi. Erkin o'zgaruvchi birliklarning ustunlik qilishi frazeologik tizimning nutq jarayonida moslashuvchan ekanligini bildiradi. Biroq qat'iy va qisman o'zgaruvchi birliklarning sezilarli ulushi frazeologik birliklarda barqarorlik hamda semantik yaxlitlikning kuchli ekanligini tasdiqlaydi. Bu holat frazeologik birliklarning grammatik erkinlik va idiomatiklik o'rtasidagi muvozanat asosida shakllanishini ko'rsatadi.

Grammatik shakllar tahlili Present Simple shaklining ustun qo'llanilishini va frazeologik birliklarning asosan barqaror, umumlashgan ma'nolarni ifodalashini ko'rsatdi. Continuous va Perfect shakllarning kam uchrashi esa ularning dinamik jarayonlarni emas, balki statik va konseptual ma'nolarni ifodalashga moyilligini bildiradi. Shuningdek, tadqiqot natijalari idiomatiklik darajasi oshgani sari morfologik o'zgaruvchanlik kamayishini tasdiqladi. Bu esa frazeologik birliklarda semantik yaxlitlik kuchaygan sayin grammatik moslashuv imkoniyatining cheklanishini ko'rsatadi.

Umuman olganda, fe'l frazeologik birliklar grammatik jihatdan qat'iy chegaralangan yoki to'liq erkin emas, balki o'zgaruvchanlik va barqarorlik o'rtasidagi murakkab tizim sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu natijalar frazeologik birliklarning lingvistik tabiatini chuqurroq anglash hamda ularni morfologik va kognitiv yondashuvlar asosida yanada kengroq tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Cowie, A.P. (1998). *Phraseology: Theory, Analysis, and Applications*. Oxford University Press.
2. Moon, R. (2008). *Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach*. Oxford University Press.
3. Gläser, R. (1988). The Grammatical Structure of Idioms. *Linguistics Journal*.
4. Fernando, C. (1996). *Idioms and Idiomaticity*. Oxford University Press.
5. Baker, M. (2011). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. Routledge.
6. Nattinger, J., & DeCarrico, J. (1992). *Lexical Phrases and Language Teaching*. Oxford University Press.
7. Moon, R. (1998). "Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach". *Oxford Studies in Lexicography*.
8. Sinclair, J. (1991). *Corpus, Concordance, Collocation*. Oxford University Press.
9. Carter, R. (2004). *Language and Creativity: The Art of Common Talk*. Routledge.
10. Kalybayeva, A., et al. (2020). *Cognitive Approach to Phraseology in Modern Linguistics*.
11. Boborajabov, S. (2024). Frazeologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari.
12. SHERALIEVA, N., & SULTONOVA, D. (2024). Ingliz tili frazeologik birliklarining strukturaviy tahlili.
13. Iskhakova, L. (2024). *Phraseological Units and Their Grammatical Properties in Modern Linguistics*.
14. Umarjonova, M., et al. (2024). Frazeologik birliklarning paradigmatic xususiyatlari.
15. Marsheuskaya, O. (2024). *Verbal Phraseological Units and Their Morphological Behavior*.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.